

Nigora Xolmuminova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Tahririyat va nashriyot bo'limi xodimi
E-mail: xolmuminovanigora588@gmail.com*

UMAR XAYYOM VA MAY

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Umar Xayyom ijodi, tasavvuf adabiyoti va timsollarga alohida e'tibor berilgan. Umar Xayyom ruboiylari misolida tasavvufiy timsollar – may, ayol, ishq, soqiy, jom, xarobot, qalandar, tuproq, oshiq, ma'shuqa kabi bir qancha an'anaviy ramziy obrazlar tahlilga tortilgan. Majoziy ishqni tasvirlash orqali haqiqiy ishqqa erishish yo'llari ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Umar Xayyom, may, ishq, obraz, ruboiy, tasavvuf, timsol.*

UMAR KHAYYAM AND MAY

Abstract. *This article pays special attention to the work of Omar Khayyam, mystical literature and symbols. Using the example of Omar Khayyam's rubaiyats, a number of traditional symbolic images such as mystical symbols - may, woman, love, soqi, cup, ruin, qalandar, soil, lover, mistress are analyzed. The ways to achieve true love are shown by describing figurative love.*

Keywords: *Omar Khayyam, may, love, image, rubaiyat, mysticism, symbol.*

Tasavvuf she'riyatida oshiq va ma'shuqa, gul va bulbul, may va mayxona, qadah va soqiy kabi bir qancha majoziy xarakterga ega bo'lgan an'anaviy obrazlar borki, ular nafaqat badiiy asarning o'qimishli bo'lishini ta'minlaydi, shu bilan birgalikda insonni teran mushohada yuritishga chorlaydi.

Arab mutasavvufi Ibn Arabiy Nizom ismli avliyosifat ayol bilan Ka'batullohni ziyorat qilayotganda duch kelib qoladi. Qiz uning tilovatlarini tinglab, mag'zini chaqib berib, lol qoldiradi. Nizom bilan bo'lgan uchrashuvning natijasi o'laroq, Ibn Arabiyning "Tarjumon al-ashvoq", ya'ni "Ehtiroslar tarjimoni" nomli she'rlar to'plami vujudga keladi. Ushbu she'rlar arab ishqiy poeziyasining an'anaviy uslubida yozilgan bo'lib, oshiq va ma'shuqa o'rtasidagi ishq kuylanadi.

Ma'lum bir vaqt o'tgach, Ibn Arabiy o'zining bu ishqiy she'rlariga mistik-falsafiy izohlar yozib, she'riyatda yangi bir yo'nalishni boshlab berdi. Biroz keyinroq faoliyat ko'rsatgan so'fiylar o'zlarining may, ishq, hijron to'g'risidagi dunyoviyliги yaqqol ko'rinib turgan she'rlariga ham shunaqa sharhlar yozib, ularni o'qimishli deb lozim topdilar, yoyinki endi ishq, may va hijronlarning ma'nosi kengayib, Alloh taolaga nisbatan bo'lgan ishqni anglata boshladi [1].

Sharq adabiyoti va falsafasi tarixida o'ziga xos iz qoldirgan siymolardan biri bu – buyuk fors shoiri, matematik, astronom va faylasuf **Umar Xayyom**dir. U nafaqat ilm-fan sohalarida yuksak cho'qqilarga chiqqan, balki o'zining chuqur falsafiy ruboiylari bilan ham mashhurlikka erishgan. Xayyom ijodining asosiy xususiyatlaridan biri – undagi **may** obrazining keng va murakkab talqinidir. Bu obraz ko'plab ruboiylarda takror va takror uchraydi va uni bir yoqlama, ya'ni ichkilik timsoli sifatida qabul qilish juda yuzaki yondashuv bo'ladi [2].

Umar Xayyom diniy va dunyoviy ishqni bir nuqtada birlashtira olgan hassos shoirdir. Uning ruboiylarida may, soqiy, jom, xarobot, qalandar, tuproq kabi bir qancha an'anaviy ramziy obrazlar uchraydi. Shoir may timsoliga juda ko'p murojaat qilgan. Xo'sh, may nimaning timsoli?

May (farscha: sharob, vino) Sharq adabiyotida qadimdan mavjud bo'lgan ramziy obraz bo'lib, u ko'pincha ruhiy ozodlik, ilohiy ilhom, hayotdan lazzat olish, falsafiy mushohada timsoli sifatida ishlatilgan. Xususan, tasavvufiy adabiyotda may – ilohiy mastlik, Allohga yaqinlik, yoki tasavvufiy jazba holatining ramzi sifatida tushuniladi.

Umar Xayyom esa may obraziga o'ziga xos, chuqur falsafiy ma'no yuklaydi. U uchun may – hayotning o'tkinchiligi, taqdirning o'zgarmasligi, inson erkinligining cheklanganligi fonida insonning ozod yashash huquqini bildiradi.

May – haqiqiy ishqni olovlantiruvchi vosita. Yuraklarimizni poklovchi, o'tmish qayg'u-dardlarimizni yuvuvchi, kelajakka ishonch, umid tuyg'ularini shakllantiruvchi mo'jizaviy kuchdir. May – bu dunyoning foniyligi, u dunyoning boqiyligidan darak beradi. Haqiqiy orif maydan no'sh qilganida barcha dard va qo'rquvlardan xalos bo'ladi., hayotda behuda yashab bo'lmasligini tushunadi,

dushmanlar, do'stlar esa qon-qarindoshlarga aylanadi, Allohga bo'lgan ishq olovlanib, butun vujudi poklanadi va komil shaxs darajasiga erishadi.

Umar Xayyom ham bunday tuyg'ulardan mosuvo bo'lmagan, balki o'zligida shakllantira olgan buyuk shaxsdir. Shu boisdan ham shoir shaxsni shaxs sifatida shakllantiruvchi vosita may ekanligini ta'kidlaydi:

Mayni toqqa bersam, tog' ham raqs etar,
Yomonlar yomonlab uni nahs etar.
Maydan asti tavba qilmayman, zero,
May tarbiya berur, shaxsni shaxs etar [3].

Shoir yana bir ruboiysida bu dunyodagi barcha noz-u ne'matlardan may azizroq ekanligini aytib o'tadi:

Yoshlik ayyomida sharob avlaroq,
Toza may ham yozi mohtob avlaroq.
Tushdir, xarobadir bu foniy dunyo,
Bo'lmoq bunda mastu, harob avlaroq [3].

Umar Xayyom insonlarni may ichishga chorladi. Chunki, – bu ma'rifat, poklik, o'zlikdan kechish, huzur-halovat topish, menga ega bo'lish, muxtasar qilib aytganda, Alloh jamoliga erishish demakdir.

Ichaver, may ichgan manguлик yashar,
Dunyo lazzatining barisin oshar.
May degan qayg'uni olovdek o'rtab,
Obi hayot kabi jo'sh urib toshar [3].

Tasavvufda "jazba" atamasi mavjud. "Jazba" so'zining lug'aviy ma'nosi "tortish", "o'ziga jalb qilish" demakdir. Istilohiy ma'nosi esa Haqning qulini o'zi tomonga tortishi, ilohiy tajallilariga, sayri sulukka erishishdir. Ya'ni solih o'z zotini Haq zotida, sifatini Uning sifatida, fe'lini Uning fe'lida ko'rishidir. Bunday holatda so'fiy bir muddat o'zligini unutadi, ruhiyatida kechayotgan ilohiy sir-asrurlarni, o'zgarishlarni avom xalqqa ovoza qilib qo'yadi. Tabiiyki, jazba holatini hamma ham tushunavermagan. Oqibatda, so'fistning hayoti xavf ostida

qolgan. Umar Xayyom ham bu holatni juda yaxshi tushungan. Shu bois, ruboiylarida jazba holatida ilohiy sirlarni oshkor qilmaslik tarafdori bo'lgan:

Ichganda aqldan begona bo'lma,
Es jo'yib, jahlga sen xona bo'lma.
Istasang qizil may halol bo'lishin,
Hech kimni ranjitma, devona bo'lma.
Bu sirli hayotni anglab bo'lmas hech,
Yoki haqiqatni aytmas hech bir kech.
Shuning uchun maydan bir piyola ol,
Chunki qaytmas hayot – bu fursat bemisl [3].

Bu ruboiyda Xayyom hayotning sirli va tushunib bo'lmas jihatlarini tilga oladi. U insonning hayotni to'liq anglashga urinishlari behuda ekanligini aytadi. Shuning uchun u hayotni boricha qabul qilish, lahzani qadrlash kerakligini uqtiradi. "Maydan bir piyola ol" – bu yerda may ramziy obraz bo'lib, u hayot zavqi, ozodlik, nafsdan kechish va o'zlikni anglash kabi ma'nolarda tushuniladi.

May ich, chunki bu hayotda yo'qdir navqironlik,
Yoshlik ham o'tadi – yo'q qaytish imkonlik.
Ko'ngilni yayratgin, dardni unuting, do'st,
Qabr tagi jimjimador emas, balki sukunlik [3].

Bu ruboiy hayotning o'tkinchiligi va zamonani qadrlash haqida yozadi. Shoir yoshlik, go'zallik, zavq kabi ne'matlar vaqtinchalik ekanini eslatib, hayotdan bahra olishga undaydi. "Qabr tagi jimjimador emas" degan misra bilan u o'limdan keyingi hayot haqiqiy hayot ekanligini ta'kidlaydi va inson hozirgi damni behuda o'tkazmay toat-ibodat qilib yashab qolishi lozimligini aytadi.

Umar Xayyom umri davomida naqshbandiya tariqatiga sodiq qoldi. "Dil ba yoru, dast ba kor", ya'ni "Qo'ling mehnatda bo'lsin, qalbing Allohda" shioriga amal qildi va targ'ib etdi. Xayyom ijodida insof, diyonat, ma'rifatli bo'lish, xalqsevarlik, vatanparvarlik, to'rt kunlik dunyoda mazmunli yashash kabi g'oyalar tarannum etilgan bo'lsa, nodonlik, manmanlik, riyokorlik kabi illatlar qoralanadi. Shoir ruboiylarida xalq dardi va orzu-umidlari kuylandi. Yosh avlod tarbiyasida muhim

manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bois ham, Umar Xayyom shaxsi va ijodi abadiylikka daxldordir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Annemariye Shimmel. Jonon mening jonimda.* – Toshkent: Sharq Nashriyot-Matbaa Konserni, 1999.
2. *Umar Xayyom devoni. Jamol Kamol tarjimasi.* – Toshkent: Musiqqa, 2007.
3. <http://ziyouz.uz>